

KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING O'ZIGA XOSLIKLARI

*Pirnazarova Asal*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika instituti*

*Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotasiya:** ushbu maqolada pedagog va pedagogik faoliyatning o'ziga xosliklari, kasbiy pedagogik faoliyat asoslari va uning maqsad va vazifalari o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** Pedagog, pedagogik faoliyat, kasbiy pedagogik faoliyat, shaxs, ta'lim, tarbiya.

Pedagogik faoliyat - inson faoliyatining alohida ko'rinishi bo'lib, maqsadga yo'naltirilgan xarakterga ega, chunki pedagog o'z oldiga aniq maqsadni qo'ya olmasligi mumkin emas: o'rgatish, misol, geografik kartani o'qish qobiliyati, tarbiyalash, misol, vatanparvar sifatidagi shaxsiy sifat. Keng ma'noda pedagogik faoliyat ijtimoiy funksiyani bajarishga yo'naltirilgan, jamg'arilgan tajribani kelgusida yoshi ulug'larga translyasiyalash, uzatishdan iborat. Shundan kelib chiqib, jamiyat hayotiga insoniyat vakillarini ijtimoiy va shaxsiy tartiblangan faoliyatga kirishishda, pedagogik faoliyat alohida ahamiyatga ega. Shu ma'noda pedagogik faoliyat o'quvchi va o'quvchilarga (tarbiyalanuvchi va tarbiyalanuvchilarga) pedagogning faoliyatida tarbiyalovchi va o'rgatuvchi ta'sirini rivojlantirish, bir vaqtda o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini mukammallashtirishga asos sifatida chiqadi. Uning uchun pedagogik maqsadni va pedagogik rahbarlikni faraz qilish xarakterlidir. Kasbiy pedagogik faoliyat jamiyat tashkil etgan maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi: maktablarda, kasb hunar kollejlari, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida, qo'shimcha ta'lim muassasalarida, qayta tayyorlash va malaka oshirishda.

Pedagogik faoliyat insonning boshqa turdagi istalgan faoliyati kabi xususiyatlarga ega: maqsadni faraz qilish, motivlanganligi, predinetsionligi. Uning tuzilishi, motivi, harakatlari (amallari), natijalarni tahlil qilib, pedagogik faoliyatning mazmunini ochish bilan birga shu tizimning tashkil etuvchisi deb maqsadni bilish mumkin. Shunday qilib, pedagogik faoliyat deb biz ijtimoiy faoliyatning alohida turi, o'quvchilarni shaxsiy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish va jamiyatda aniq ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorlash, insoniyat jamoasining madaniyatni va tajribani katta avloddan kichiklarga uzatishga yo'naltirish tushuniladi.

Ma'naviy va tabiiy imkoniyatlarni, hamda ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda har bir insonga ijtimoiy talablar to'plami sifatida pedagogik faoliyat maqsadi ishlab chiqiladi va shakllantiriladi. Maqsad shaklida yig'ilgan, bir tomondan, ayrim shaxsning ehtiyojlari va intilishlari, boshqa tomondan

har xil ijtimoiy va etnik guruhlarning qiziqishlari va ko'zda tutganlari mavjud bo'ladi. Shaxsni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, pedagogik faoliyat maqsadi deb bilish mumkin. Holatlarni juda ham turli xil o'zgarishlarida, maqsadni umumiy xarakteri, juda yuqori professionalizmni va nozik pedagogik mahoratni pedagogdan talab qiladi, pedagogga uni amalga oshirishga imkon beradi.

Maqsadga erishish faqat faoliyat orqali amalga oshiriladi, maqsadda paydo bo'lgan masalalarni yechishga yo'naltirish, umumiy harakatning bosqichi, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatning oraliq natijasi sifatida tushuniladi. Pedagogik faoliyatni amalga oshirish maqsadi quyidagi ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal qilish bilan bog'liq, ya'ni tarbiya muhitini shakllantirish, tarbiyalanuvchilar faoliyatini tashkillashtirish, tarbiyalash jamoasini yaratish, shaxsni individualligini rivojlantirish.

Pedagogik faoliyat maqsadi - nafaqat tarixiy, balki dinamik hodisadir. Olim-pedagoglarning ko'pchiligi dars berish va tarbiyani pedagogik faoliyatning asosiy turlari deb ataydilar. Kasbiy ta'lim pedagoglari faoliyatining asosiy turlariga ta'rif berish uchun «Kasbiy ta'lim» mutaxassisligi Davlat ta'lim standartiga murojaat qilamiz. Standartda kasbiy-pedagogik faoliyatning quyidagi asosiy turlari ajratiladi:

- kasbiy ta'lim,
- ishlab chiqarish-texnologik faoliyat,
- uslubiy ishlar,
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati,
- ilmiy-tadqiqot ishlari,
- madaniy-oqartuv faoliyati.

Kasbiy ta'lim - bu o'quvchilarga aniq kasbiy sohada bilim, ko'nikma va malakalarni uzatish va mutaxassis shaxsinishakllantirish jarayoni, zamonaviy jamiyatning talablarga javob beradi.

Shunday qilib, kasbiy ta'lim o'ziga ikkita tashkil etuvchini kiritadi - dars berish va tarbiyalashi.

Dars berish - bu yangidan yangi bilish masalalarini yechishga yo'naltirilgan, o'quvchilarni faol bilish faoliyatini pedagog tomonidan tashkil etilishi. Shuni aytish lozimki, o'rganish - bu pedagog va o'quvchini birgalikdagi faoliyati, undagi bosh ishtirokchi o'quvchi hisoblanadi.

Pedagog doimo yodda tutishi lozim, uning shaxsiy faoliyati yordamchi, xizmat ko'rsatuvchi xarakterdaligini, o'quvchi faoliyatini tashkil etish qobiliyatiga bog'liqligi, o'rganishda unga yordam berishda, uning roli va ahamiyati borligini.

Tarbiyalash - bu faoliyat, tarbiyalash muhitini "tashkil etishga yo'naltirilgan", va tarbiyalanuvchilarni har xil turdagi faoliyatini boshqarish (shu jumladan anglash) maqsadida masalalarini yechish. O'qitish va tarbiyalash - bir jarayonning ikki tarafi: o'qitish mumkin emas, tarbiyaviy ta'sir etmasdan, tarbiyalash mumkin emas, o'qitish elementlarisiz.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatda ishlab bajarishda amaliy bilim va ko'nikmalarni amalga qo'llash, ishlab chiqarish ko'nikmalarni hosil etish, o'zini kasbiy sohasida texnologik zanjimi bilish.

Pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi: jamiyatning ijtimoiy vazifalarini (masalan, muxandis-pedagoglar tayyorlashni) to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarining o'sib, uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi; muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondoshishi;

o'qituvchilar qiziqishlarini etiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish. O'qituvchilar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borishda bunga e'tibor berish zarur.

Pedagog tadqiqotchilarning fikricha, pedagogik ob'ektining o'ziga xosligi quyidagilardan iborat:

1. Inson-tabi'atning jonsiz moddasi emas, balki o'zining individual sifatlari, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs-takrorlanmasdir". U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir. SHunday qilib, pedagogik faoliyatning ob'ekti bir paytning o'zida bu faoliyatning sub'ekti bo'lib hisoblanadi.

2. Pedagog doimo o'zgarib, o'sib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondoshishda bir xil qolip, shakllanib qolgan hattiharakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O'qituvchilarga pedagogdan tashqari atrof-muhit, otaona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham, ba'zan sezilmaydigan, ba'zan esa har tomonlama bir nechayo'nalishda ta'sir etadi. SHuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'qituvchining o'zida paydo bo'lgan fikrlarga to'zatislar kiritib borishni nazarda tutadi. Masalan, diniy ekstremizm va boshqa oqimlarga kirib ketgan yoshlarning adashganligini tushuntirish, ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan axborotlarni tog'ri anglashga undash va h. k. Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B. Xodjayev „Pedagogika nazariyasi va tarixi“ o'quv qo'llanma
2. A. Xoliqov „Pedagogik mahorat“ darslik
3. N. X. Rahmonqulova K. O. Matnazarova „Umumiy pedagogika“
4. M. Ahmedova „Pedagogika nazariyasi va tarixi“ o'quv qo'llanma
5. N. Ataeva F. Rasulov S. Hasanov „Umumiy pedagogika“ o'quv qo'llanma